

Uzbekistan Airways Technics texnik xizmat ko'rsatish uchun ikkita samolyotni qabul qildi

2022 6 January

Yil boshidan “Uzbekistan Airways Technics” MCHJ (UAT)ga “Aviastar-TU” aviakompaniyasining Boeing 757-200 va SCAT Airlines aviakompaniyasining Boeing 767-300 samolyotlari keldi.

Boeing 757-200 havo kemasida texnik xizmat ko'rsatish davomida uning shassi ustunlarini almashtirish ishlari olib boriladi. Ushbu turdagi samolyotlarda bunday noyob texnik operatsiya har 10 yilda bir marotaba amalga oshiriladi. Ushbu turdagi ishlar 2019-yilda “UAT” MCHJ havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish markazi mutaxassislari tomonidan o'zlashtirildi, bu esa buyurtmachiga samolyotlarga xizmat ko'rsatish vaqtini sezilarli darajada kamaytirish va ularni foydalanishga qaytarish imkonini berdi.

Telegram: t.me/uzbekistanairways